

TIBBIYOTNING BARHAYOT SIYMOSI YOXUD MALIKA SAMATOVNA ABDULLAXO`JAYEVA MEROSIGA BIR NAZAR

Turobova Shohista qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada tibbiyot yo`nalishida umrini sarflagan Malika Samatovna Abdullaxo`jayeva merosini o`rganish ,uning faoliyati,qilgan mehnatlari ,tibbiyotda yaratgan yo`nalishlari ,mukofotlari bilan tanishtiriladi.

Kalit so`zlar: patolog, immunologiya, o`pka kasalligi, medio-biologiya, transplantatsiya, patologik-anatomiya, neyromorfologiya.

Inson salomatligi barcha boyliklardan eng ustun turadigan qimmatbaho boylikdir. Insonlar salomatligi uchun o`z umrini ,yoshligini -butun dunyosini bag`ishlagan tibbiyot sohasining yetuk vakili Malika Samatovna Abdullaxo`jayeva merosiga bir nazar tashlar ekanmiz, bu inson umri bekorga o`tmabdi,u bugun ham bizning yiragimizda, kitoblarimizda ,jamiyatimizda ,butun dunyo hamjamiyatida yashayotganini guvohi bo`lamiz. Malika Samatovna Abdullaxo`jayeva –patolog-anatom,O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi. O`zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi .Tibbiyot fanlari doktori ,professor.

Malika Samatovna 1932-yil 28-noyabrda Moskvada Sharq Xalqlari xalqaro universiteti talabalari oilasida tug`ilgan. Toshkentdagi 110-maktabni oltin medal bilan tugatib, 1950-yilda Toshkent davlat tibbiyot akademiyasining davolash fakultetiga o`qishga kiradi O`qish davrida davlat stipendiati,ilmiy jamoa talabalari raisi bo`ladi. Talabalik yillaridayoq Malika Samatovna patologik anatomiya qoshida (1953- 1956) ilmiy to`garakda ilmiy faoliyatini boshlaydi.Uning birinchi ishi - professor G.N.Trexova rahbarligida bolalarning o`pka kasalligida orqa yadro vagusini gistokimyo bo`yicha bo`lib, Sog`liqni saqlash vazirligi,Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan bu ishi faxriy yorliq taqdim etilgan.So`nggi yillarida Malika Samatovna Markaziy asab tizimini reaktiv va patologik jarayonlarni o`rganish bo`yicha ishini davom ettiradi. 1956-yilda ToshDTI a`lo baholarga tamomlagach ,Malika Samatovna 1960 –yil 27-dekabrda SSSR tibbiyot fanlari Akademiyasining bosh miya instituti aspiranturasiga o`qishga kirdi.

SSSR Tibbiyot fanlar akademiyasi mediko-biologiya bo`limida tibbiyot fanlar nomzodi dissertatsiyasini yoqladi va 1968-yil tibbiyot fanlari doktori bo`ldi. 1961- yil Malika Samatovna Toshkent davlat tibbiyot instituti qoshida birinchi marta O`zbekiston Respublikasida Markaziy ilmiy-tekshirish laboratoriyasini tashkil etdi. 1969-yil Malika Samatovna patologik-anatomiya kafedrasida tanlov o`tkazildi, 1970 –yil professor unvoniga sazovor bo`ldi va uning shogirdlari neyropatologiya va

neyromorfologiya muammolari bo'yicha dastur ishlab chiqishadi. Professor M.S.Abdullaxo'jayeva klinik immunopatologiya va eksperimental sohasi bo'yicha tanilgan olim sanaladi. Uning yana bir yo'nalish tadqiqoti va shogirdlari bilan – homiladorlikda patologik anatomiyani asoratlari va patogenezni o'rganish bo'lgan.

35-yil davomida Malika Samatovna tibbiyot institutining patologik anatomiya kafedrasini mudiri bo'lgan vaqtida yuqori malakali shifokorlarni, tibbiyot sohasida oliy o'quv yurti pedagoglari, tibbiyot fanlari doktorlarini tayyorlashda katta hissa qo'shdi. 1990-yil Birinchi va Ikkinchi ToshDTI ajratilgandan so'ng olim ikkinchi ToshDTI patologik anatomiyasi kafedrasini 2000-yilgacha boshqardi.

M.S. Abdullaxo'jayeva – muallifi, bundan tashqari chet tili talabalari va stomatologiya fakulteti talabalariga bir qancha uslubiy tavsiyalar, o'quv qo'llanmalar muallifidir. 1997- 1999-yillarda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida “ Odamning patologik asoslari” 2-jildlik darsligini yaratdi. 1995-yil M.S.Abdullaxo'jayeva O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, 2000-yil haqiqiy a'zosi bo'ldi. 1972-yildan 1997-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash borasida bosh patologik anatomiyasi sifatida patologik anatomiyani rivojlanishida katta hissa qo'shdi. Ilk marta patologik anatomiyasi internatura bo'limi tashkil etildi, barcha davolash –profilaktik muassasalarida patologik –anatomiya bo'limi ochildi.

Bugungi kunda uning tashabbusi bilan MDH mamlakatlarida yagona bo'lgan Respublika patologianatomiya markazi tashkil etildi. Uning baxasida barcha tibbiyot mutaxassisliklari magistratlari ta'lim olishmoqda, shifokorlik amaliyoti tajribasi o'tkaziladi, bundan tashqari 5 ta bo'lim: patogistologiya, bakterilogiya, virusologiya, sitologiya laboratoriyalari ishlab turibdi. RPM laboratoriyasi, elektron mikroskopiya, tibbiyot va molekulyar genetika, shuningdek, biotexnologiya hujayralari laboratoriyasi tashkil etildi. ToshTI Markaziy ilmiy tekshirish laboratoriyasi mudiri (1960 -1962), O'zbekiston rentgenologiya, radiologiya va onkologiya ilmiy tekshirish instituti patomorfologiya va gistoximiya laboratoriya mudiri (1963- 1969), ToshTI (1969- 1990), 1990-yildan 2 –ToshTI patologik anatomiya kafedrasini mudiri lavozimlarida faoliyat yuritgan. Abdullaxo'jayevaning ilmiy ishlari, asosan nerv sistemasining immunopatologiyasi, geografik patologiya va tibbiyot tarixi masalalariga bag'ishlangan. O'zbekistonda tibbiyot sohasidagi yangi yo'nalish –transplantatsiya immunopatologiya asoschisi.

O'zbek va rus tillarida chop etilgan birinchi patologik anatomiya darsligining (1997) muallifi. Kaliforniya shtatining faxriy fuqarosi bo'lgan. M.S.Abdullaxo'jayeva rahbarligida 2005-yil Human Herpes virusining 8-tipini va Epshteyn-Barr virusining rivojlanish turlarini o'rganish bo'yicha ish boshlagan.

Akademik M.S.Abdullaxo'jayeva –katta ilmiy pedagogik va patologik anatomiya amaliyot maktabi asoschisi; uning rahbarligi qo'l ostida 13 ta tibbiyot fan doktori va 58 ta tibbiyot fanlari nomzodi yetishib chiqqan. Shogirdlari bugungi kunda

O`zbekistonning yirik tibbiyot markazlarida emas, balki bir qator Markaziy Osiyo mamlakatlarida, shuningdek, Rossiya, Isroil, Hindiston, Yaman, Misr, Nepal, AQSH davlatlarida faoliyat yuritishadi.

M.S. Abdullaxo`jayeva bir qancha davlat mukofotlariga sazovor bo`lgan: "Mehnat faxriysi" ordeni (1970), "Faxriy nishon" ordeni (1976), "O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni (1980), "Mehnat Qahramoni" ordeni (1984), "Oliy ta`lim a`lochisi" (2000), "Mehnat shuhrati" (2003). 2006-yilda O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti qarori bilan M.S. Abdullaxo`jayeva "O`zbekiston Qahramoni" va "Oltin Yulduz" unvoni bilan mukofotlandi. Akademik ayol 2018-yil 26-iyunda vafot etadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning har qanday yo`nalishida fidokorona xizmat qilib kelgan va kelayotgan har bir inson vatan yuragida yashaydi. Zero insonning qilgan ishlari, asarlari, mehnatlari umrboqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Ibragimxodjayev, G. Shaxmurov. Immunologiya. Toshkent 2010
2. Komilov, Y. K. "Tibbiyot darg'alari"